



MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH HAMDA ULARNI BARTARAF ETISH CHORA – TADBIRLARI

¹Safarov G'iyosiddin Abdullayevich

Toshkent moliya instituti,

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent,

²Melibayeva Muqaddas Xikmatovna

Toshkent moliya instituti,

“Moliya” kafedrasida o'qituvchisi,

³Bahodirov Zokirjon Olimjon o'g'li.

Toshkent moliya instituti,

“Iqtisodiyot” fakulteti, “Iqtisodiy xavfsizlik” guruhi talabasi,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7340253>

ARTICLE INFO

Received: 09th November 2022

Accepted: 18th November 2022

Online: 20th November 2022

KEY WORDS

Ushbu tezis mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy xavf soluvchi omillardan biri sanalmish, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish hamda uni bartaraf etish bo'yicha davlat va jamiyat tomonidan olib boriladigan chora - tadbirlar xususidagi ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan.

Kriminologiyada jinoiy qilmishni yuzaga keltiruvchi vosita g'arazli maqsaddir. Qiyosan aytganda, g'arazli maqsad shaxsning xususiyatlarini va xislatlarini ifodalaydi. Ya'ni, o'zining chirkin niyatlariga erishish uchun xatti – harakatlar nimaga qaratilishi, o'z niyatiga erishmog'i uchun nimalarni amalga oshirishi va bunday faoliyat ko'rsatuvchi shaxsga nima naf berishi mumkin degan savollarga javob topish orqali shaxsning aniq xislatlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy jinoyatlarga xos g'arazli maqsadlarni bilish esa mulkka egalik qilishning ma'naviy va huquqiy jihatlarini

ABSTRACT

Ushbu tezis mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy xavf soluvchi omillardan biri sanalmish, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish hamda uni bartaraf etish bo'yicha davlat va jamiyat tomonidan olib boriladigan chora - tadbirlar xususidagi ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan.

shaxs qanchalik e'tirof etganligini ifodalaydi. Maqsad o'zining uzil – kesilligini g'araz bilan bog'laydi va bu jarayon uzoq vaqt mobaynida shakllanadi hamda jazo va uning qo'llanishidan cho'chimaydi.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy jinoyatni sodir etuvchi subyektlar har qanday holatda ham o'z maqsadlariga erishishga intiladilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida keltirilishiga ko'ra:

Prokuratura, ichki ishlar, Davlat soliq qo'mitasi organlari, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan



iqtisodiyot va soliq sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish, soliqlar va to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga to'liq tushishini ta'minlash, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar va soliqqa oid qonunlar buzilishining oldini olish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Soliq sohasidagi qonun buzilishlariga qarshi tezkor kurashish bosh boshqarmasi xodimlari tomonidan ko'rilayotgan tezkor chora-tadbirlar natijasida soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortish, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni noqonuniy ishlab chiqarish va sotish hamda boshqa iqtisodiy jinoyatlar bilan bog'liq holatlar muntazam ravishda aniqlanmoqda. Shu bilan birga, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi tezkor bosh boshqarma faoliyati ushbu xizmat oldiga qo'yilgan talablarga to'liq javob bermaydi:

- ishda batartiblik va izchillik yo'q, sa'y-harakatlarning mayda buzilishlar va jinoyatlarga qarshi kurashga tarqoq holda yo'naltirilishiga yo'l qo'yilmoqda, korrupsiya, iqtisodiy va soliqqa oid jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi muhim sabablarni topish va cheklash mahorati yetishmayapti;
- bevosita soliq xizmatlari, tergov organlari, tezkor-qidiruv bo'linmalari xatti-harakatlarida lozim darajali va zarur aloqa, uyg'unlik yo'q, natijada qonun normalarining yo'l qo'yilgan buzilishlari uchun jazo muqarrarligi prinsipining bajarilishiga erishilmayapti;
- kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va almashtirib turishning amaldagi tizimi jiddiy yaxshilashni talab qiladi.

Iqtisodiyot va soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning

iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko'ra:

O'zbekiston

Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Soliq sohasidagi qonun buzilishlariga qarshi tezkor kurashish bosh boshqarmasi bazasida va uning mavjud shtatdagi xodimlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti (keyingi o'rinlarda "Departament" deb ataluvchi) va uning joylardagi bo'linmalari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tuzilmasidagi Soliq sohasidagi qonun buzilishlariga qarshi tezkor kurashish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tugatilsin, bo'shaydigan 1172 nafar shtat yangi tashkil etilayotgan Departament tarkibiga berildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Tadqiqot ishida kuzatish, umumlashtirish, omilli va dinamik taqqoslash, mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR: *Iqtisodiy jinoyatlar* – milliy iqtisodiyotga, uning tarmoqlari yoki sohalariga ziyon yetkazadigan yoki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan va jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy, xavfli qilmishdir. Buunday jinoyatlarning sodir etilishi natijasida jamiyat, jamoat birlashmalari yoki ayrim fuqarolarga moddiy ziyon yetkaziladi va jamiyatning iqtisodiy negizlariga tajovuz qilinadi.

Iqtisodiy jinoyatlar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- O'zgarar mulkini talon – taroj qilish;
- O'zgarar mulkini talon – taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar;



- Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar;
- Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar;
- Mamlakatda qonunga xilof bo'lgan xufyona iqtisodiyot faoliyati;
- Korrupsion faoliyat;
- Mamlakatda ayrim firibgarlar tomonidan muomaladagi milliy valyutani qalbakilashtirilishi;
- Ayrim firibgar shaxslarning aholi qatlamlarining ma'lum ehtiyojlarini qondirish uchun yolg'on va'dalar berib, ko'r - ko'rona ularning pulini olib, ularning iqtisodiy holatiga putur yetkazishi;
- Mamlakat hududiga xorijiy davlatlardan tovarlar, texnika vositalari, umuman olganda, iqtisodiy ne'matlar noqonuniy (kontrabanda) yo'llar bilan kirib kelishi va boshqalar...

Iqtisodiy jinoyatlar oqibatida, avvalambor mamlakat iqtisodiy jihatdan yemiriladi, aholi qatlamlari moddiy zaxiralari inqirozga yuz tutadi, mamlakat hududida ayrim firibgarlar tomonidan ma'lum miqdorda milliy valyutaning qalbakilashtirilganligi kuzatiladi, ko'r - ko'rona kontrabanda yo'li bilan mamlakat hududiga olib kirilgan iqtisodiy resurslar sababli mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va mahsulotlar sotilmay qoladi, agar bular tezda davlat nazoratiga olinmasa, buning natijasida mamlakatga turli xil qora dori mahsulotlari, aholi qatlamlari uchun o'ta xavfli bo'lgan turli xil giyohvand moddalar ham kirib kelish xavfi mavjud bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy jinoyatlarni oldini olish chora - tadbirlari:

- O'g'rilik, talonchilik, tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlarining oldini olishga qaratilgan chora - tadbirlar tizimini takomillashtirish;

- Talon - taroj qilish orqali o'zlashtirish, iqtisodiyot sohasidagi va xo'jalik faoliyatini yuritish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora - tadbirlar tizimini takomillashtirish;
 - Mayda bezorilik holatlarini o'z vaqtida aniqlash va chora ko'rish;
 - Iqtisodiyotda samarali boshqaruv tizimini yaratish va takomillashtirib borish;
 - Monopoliyani yuzaga keltirmaslik va erkin raqobatning ta'minlanishi;
 - Davlatning moliya, soliq va boshqa yo'nalishlardagi nazorat qilish ishlarining tashkiliy asoslarini takomillashtirish;
 - Kasbiy tayyorgarlik va moliya, soliq, bojxona kabi nazorat organlarini tanlash hamda joy - joyiga qo'yish;
 - Iqtisodiy aloqalar subyektlarning haq - huquqlarini himoya qilishda keng jamoatchilik uyushmalari va tashkilotlarining faoliyat ko'rsatish mexanizmini yaratish;
 - Ayrim faoliyat yo'nalishlari bo'yicha nodavlat korxonalarini va tashkilotlari shug'ullanishini huquqiy jihatdan ta'qiqlashni amalga oshirish;
 - Davlat boshqaruvi va nazorat organlari xizmatchilari uchun muayyan yo'nalishdagi tijorat - tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini cheklash;
 - Daromad va hisob - kitob ishlarini olib borishdagi aniqliklarni ta'minlash uchun nazorat va hisobga olish ishlariga yangi usullarni joriy etish hamda takomillashtirib borish;
 - Iqtisodiyot asoslari va xo'jalik faoliyatini nazorat etish va boshqarishda huquqqa zid qilmishlarni oldini olish bo'yicha hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish;
- Iqtisodiy jinoyatlarni sodir etishning oldini olish quyidagi ma'muriy- huquqiy chora - tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liqdir:*



- Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlar subyektlarining faoliyat yo'nalishlarida zarur bo'lgan huquqiy muvofiqlashtirishni yo'lga qo'yish;
- Xo'jalik faoliyatini yurituvchi subyektlar faoliyatida band subyektlarning jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan sodir etiladigan qonunbuzarliklarni oldini olish uchun moddiy jazo qo'llashning mukammal tizimini yaratish;
- Jamiyat ehtiyojlariga zid holda xo'jalik faoliyatini yuritishga qarshi ma'muriy va jinoiy - huquqiy javobgarliklarni joriy etish;
- U yoki bu faoliyat yo'nalishlarini tartibga solish maqsadida turli cheklashlarni joriy etish;
- Xususiy yoki qo'shma korxonalarini tuzish va ro'yxatga olishdagi sun'iylik, buxgalteriya faoliyatidagi ko'zbo'yamachiliklarga aniq jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikni joriy etish;
- Iqtisodiyot sohasida qabul qilinayotgan qonunlarni iqtisodiy - moliyaviy, tashkiliy - iqtisodiy, kriminologik, ekologik va psixologik asoslarining mukammal bo'lishini ta'minlash uchun muntazam ravishda ekspertiza o'tkazilishini tashkil etish;
- Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan huquqiy islohotlarni o'tkazishda moliyaviy, soliq, bojxona nazoratlarining tashkiliy asoslarini takomillashtirishga e'tibor qaratish;
- Xo'jalik sohasidagi jinoyatlarni aniqlash va ularning sabab hamda sharoitlarini aniq ifodalashda nazorat olib boruvchi huquq - tartibot organlarining vakolatlari doirasini to'g'ri belgilash;
- Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida mavjud axborot manbalarining daxlsizligini ta'minlash, shu bilan birga,

axborotlarni asossiz ravishda soxtalashtirish, yashirish, yo'qotish kabi holatlarning yuzaga kelmasligini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratish va boshqalar...

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy jinoyatlarni oldini olish ishlari bo'yicha "Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti" shug'ullanadi. Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy jinoyatlarga va korrupsiyaga, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni kompleks tahlil qilish hamda qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- Insofli tadbirkorlar, chet el investorlarini ular faoliyatiga davlat organlari va tashkilotlarining noqonuniy aralashuvidan himoya qilish, biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi sun'iy byurokratik to'siq va g'ovlarga chek qo'yish, importni optimallashtirishga va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga ko'maklashish;
- Byudjyet tizimi byudjyetlari mablag'larini talon-toroj qilish va ulardan maqsadsiz foydalanish, davlat xaridlarida narxlarni oshirib yuborish, davlat organlari va tashkilotlarida debitor hamda kreditor qarzdorlikning asossiz ortishi holatlarini aniqlash, yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha choralar ko'rish;
- Yoqilg'i-energetika kompleksida, bank-moliya, soliq, transport, qurilish va ijtimoiy sohalarda iqtisodiy jinoyatlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularni



keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

- Davlat manfaatlariga zid ravishda bitimlar tuzish holatlariga qarshi kurashish, chet el valyuta mablag'lari noqonuniy ravishda chiqib ketishi, olib kirilishi va olib chiqilishi, ularning noqonuniy muomalasi, "xufyona iqtisodiyot"ni shakllantirishning turli sxemalari va kanallarini aniqlash;
- Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar narxlarini manipulyatsiya qilish, ularga bo'lgan sun'iy tanqislik va ajiotaj talabni vujudga keltirish, shuningdek, sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlari aylanmasi bilan bog'liq noqonuniy harakatlarga qarshi kurashish;
- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining samarali ijro etilishini ta'minlash;
- Iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha chet davlatlarning vakolatli organlari, xalqaro ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va axborot almashish;
- Iqtisodiy va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni, terrorizmni moliyalashtirishni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishning oldini olish bo'yicha keng tushuntirish va profilaktika ishlarini amalga oshirish.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida Korruptsiya va iqtisodiy jinoyatlar qariyb 7 foizga kamaygan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Ichki ishlar vazirligi tomonidan mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan ishlarga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Korruptsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan keng muhokama qilinayotgan dolzarb mavzuga aylandi. Hatto, ayrim siyosatchilar tomonidan korruptsiyaga global inqirozni keltirib chiqaruvchi omil sifatida ta'rif berilayotir. Zero, korruptsiya mamlakat rivojlanishiga to'siq bo'lib, unga jamiyatdagi bir kasallik sifatida qaralmoqda. Matbuot anjumanida mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish, jinoyatchilikning oldini olish masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgani qayd etildi. Jumladan, pora olish yoki berish, unga vositachilik qilish, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiise'mol qilish, mansab soxtakorligi kabi jinoyatlarga qarshi qat'iy kurash olib borilmoqda.

Joriy yilning 11 oyi mobaynida Ichki ishlar vazirligi jinoyat qidiruv bosh boshqarmasining korruptsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi tomonidan 748 ta korruptsiya va iqtisod sohasida sodir etilgan, hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyat aniqlandi. Mazkur jinoyatlarning 94 tasi poraxo'rlik, 55 tasi tovlamachilik, 350 tasi firibgarlik, 77 tasi valyuta qoidasini buzish, 17 tasi qalbaki pul yasash, 77 tasi



o'zlashtirish yo'li bilan talon-toroj qilish hamda 78 tasi boshqa turdagi jinoyat hisoblanadi. Bu yo'nalishda aniqlangan jinoyatlar o'tgan yilga nisbatan 6,8 foizga kamaygan.

Tezkor qidiruv chora-tadbirlari natijasida 142 guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlar fosh etilib, jinoyat sodir etgan 937 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ulardan 115 nafariga nisbatan "qamoqqa olish" ehtiyot chorasi qo'llanilgan. Jinoyatlar natijasida yetkazilgan 122 milliard 320 million so'm moddiy zararining 62 milliard 514 million so'mi undirilishi ta'minlandi.

So'ngi yillarda korrupsion huquqbuzarliklar profilaktikasiga bo'lgan e'tiborning kuchaytirilganligi sababli poraxo'rlik jinoyatlari aniqlanishi Qashqadaryo viloyatida 91,3 foiz, Surxondaryo viloyatida 75 foiz, Samarqand va Toshkent viloyatlarida 50 foiz, Toshkent shahrida 25 foiz, Farg'ona viloyatida 23,5 foiz hamda Navoiy viloyatida 14,3 foizga

kamayishiga erishilgan.

Shuningdek, o'zlashtirish yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatlarini aniqlash Xorazm viloyatida 66,7 foiz, Jizzax viloyatida 50 foiz, Sirdaryo viloyatida 42,9 foizga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 33,3 foiz, Namangan viloyatida 23,5 foiz hamda Toshkent shahrida 20 foizga kamaygan. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish ishlari bo'yicha, mamlakat hududidagi ayrim firibgarlarga aldanmaslik, davlatning iqtisodiy jinoyat yurituvchi subyektlariga nisbatan ma'muriy – huquqiy nazoratini takomillashtirilishi, mamlakat hududiga turli xil noqonuniy kontrabandalar kirib kelmasligini ta'minlanishi, aks holda ushbu jinoiy ishlarga qo'l urgan ayrim firibgar shaxslarning qonun doirasida javobgarlikka tortilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. Международный пакт о гражданских и политических правах. Международная защита прав и свобод человека. Сборник документов. М.: Юрид. Лит., 1990 г.
3. <https://kun.uz/uz/news/2018/05/24/iktisodiy-zinoatlarga-karsi-kurasis-departmentining-asosij-vazifalari-belgilandi>.
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/iqtisodiyot-sohasidagi-jinoyatlarning-sabab-va-sharoitlari>.
5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_jinoyatlar;
6. <https://lex.uz/docs/-346199>;
7. <https://pravacheloveka.uz/oz/news/korrupsiya-va-iqtisodiy-jinoyatlar-qariyb-7-foizga-kamaygan>.